

AYOL-INSONNING KO'NGIL HOTIRJAMLIGI, DUNYONI TEBRATUVCHI BESHIGIDIR

Otahanova Manzura G'ofurovna

University of Business and Sciences nodavlat oliy

ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Tel: +99894-009-11-55 e.mail:

OtahanovaManzura@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola munis va mo'tabar, ayollarimizning og'irini yengil qilish, xuquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilaganligini eslatish bilan bir qatorda barcha islohatlarimizning mazmuni, "Inson omili uchun" tamoyilining mohiyati ham ana shunga qaratilganligi, „Xotin-qizlarni qo'llab quvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonliklarni oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan yig'ilishda mazmun va mohiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

ANNOTATION

In addition to reminding that this article has defined the issue of honor and respectable, alleviating the burden of our women, ensuring their rights and interests, increasing their economic, social and political activity as an important direction of the state policy, the content of all our reforms, "for the human factor" "The essence of the principle is aimed at this, to raise the system of supporting women and girls to a new level and to further enhance and strengthen the position of women in society, as well as to strengthen their social protection, prevent family violence, and decide on gender equality. At the meeting aimed at finding, opinions were expressed about the content and essence.

АННОТАЦИЯ

Помимо напоминания о том, что в данной статье определен вопрос муниципального и достойного, облегчения бремени наших женщин, обеспечения их прав и интересов, повышения их экономической, социальной и политической активности как важное направление государственной политики, содержание всех наших реформ, «для человеческого фактора» «Суть принципа направлена на то, чтобы поднять систему поддержки женщин и девочек на новый уровень и еще больше усилить и укрепить положение женщин в обществе, а также усилить их социальную защиту, предотвратить насилие в семье и решить

вопрос гендерного равенства. На встрече, направленной на поиск, были высказаны мнения о содержании и сути.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini ta'minlash yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida har yili qabul qilinayotgan Davlat dasturlarida ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda aholining gender tenglik to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlar belgilanib, izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz rahbari Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ham jamiyatimizda ayolni ulug'lash, unga hurmat-ehtirom ko'rsatish, og'irini engil qilish borasida bir qancha ezgu ishlarni amalga oshirmoqda.

Aynan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev faoliyatlarining ilk kunlaridan boshlab munis va mo'tabar, ayollarimizning og'irini engil qilish, xuquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilaganligini eslatish bilan bir qatorda barcha islohatlarimizning mazmuni, "Inson omili uchun" tamoyilining mohiyati ham ana shunga qaratilganligini alohida ta'kidlab otdilar, bundan tashqari 2024 yil mart oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan yig'ilishida, Xotin-qizlarni qo'llab quvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonliklarni oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan yig'ilishda. Agar biz xalqimiz bizdan rozi bo'lishini hohlasak, abbalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Biz mana shu hayotiy xaqiqatdan kelib chiqqan xolda, bu masalada bir qator muhim qonunlar, farmon va qarorlar qabul qildik deyдилar muhtaram Prezidentimiz.

Xotin-qizlarni qo'llab quvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo'ravonliklarni oldini olish, gender tenglikni qaror toptirish bugungi kunning dolzarb masalaga aylangan.

Ayol-insonning ko'ngil hotirjamligi, dunyoni tebratuvchi beshigidir. Ularning sha'niga qancha so'z aytmaylik, minglab doston satrlar bitmaylik, ta'rifini ado etolmaymiz. Ayolga ehtirom bizning milliy qadryatlarimizda ulug'langan. Ayolning aqli va qalbi bo'm-bo'sh bo'lsa, unda na maktab madaniyati va masjid ibodati bo'lmasa, undan kutulgan tarbiya qayerdan paydo bo'lardi?! Ayoli faqat taom hozirlash va rohat bag'ishlashgagina yaroqli jonzot bo'lgan jamiyat, aslo isloh bo'lmas jamiyatdir deydi Shayh Muhammad G'azzoliy. So'z mulkining sultoni Alisher

Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur, o'zbek romanchiligining asoschisi A.Qodiriy asarlarida ayol timsolini ulug'lanib, bir-biridan go'zal obrazlar yaratilgan. Birgina A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi Kumushbibini timsolini olaylik. Unda butun o'zbek ayollaridagi odob-ahloq, iffat, oqilalik, vafo-sadoqat, jasurlik kabi insoniy fazilatlar mujassam. Asarni o'qiganki kitobxon Kumushbibini timsolini kata mahorat bilan erkalab tasvirlanganligini ko'radi. Asar yakunida Kumushbibini vafotini tasvirlashda, adib ko'z yoshlari bilan ifoda etganini anglab yetadi....

Mumtoz adabiyotimizda ham, hozirgi adabiyotimizda ham biron bir shoir yo'qki Ayolni tasvirlamagan bo'lsin.

Dinimizda ayolga bo'lgan yuksak ehtirom Qur'oni Karim va hadisi shariflarda ham o'z aksini topgan. Ayniqsa, ularning ona sifatida mavqeyiga juda kata hurmat ko'rsatilgan. Hususan, Qur'oni karimda ayollarga oid masalalar 309 ta oyatni o'z ichiga olgan. Islom ta'limotiga ko'ra, erkak ayol tengdirlar. Ular ijtimoiy va dunyoviy vazifalarni o'z ehtiyojlari va talablariga hos ravishda ado etishi va shariat belgilagan yo'ldan borib faqatgina ezgu ishlarga qo'l urushlari lozim.

Baqara surasi 228-oyatida "Ayollar uchun (belgilangan xuquqlar) o'z meyorida erkaklar (xuquqi) bilan tengdir" deb marhamat qilingan. Shuningdek islom dinida ayolning ijtimoiy—iqtisodiy va siyosiy xuquqlari ham kafolatlab qo'yilgan. Ularning mehnat qilishi man etilmay, balki o'z tabiatiga munosib ishlarni tanlash lozimligini o'qtiradi. Shu tariqa ayol og'ir mehnatdan ozod etilgan.

Butun jahon islom huquqlari deklaratsiyasining 8-moddasiga ko'ra "Ayol erkak kishining juftidir," deb belgilangan. Shuningdek, hadisi shariflarda ham ayollar bilan munosabatda adolatli bo'lishi bayon etilgan. Demokratik huquqiy jamiyat qurishni oldimizga maqsad qilib qo'ygan kundan e'tiboran ayollarning jamiyatdagi o'rnini yuksaldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarda ayollarning huquq va erkinliklari kafolatlandi. Ularning jamiyatda faoliyat olib borishi, barcha huquq va burchlarini ado etishi ta'minlandi. Ayollarga nisbatan tahqirlash, ayrimachilik kabi illatlar barham topdi.

Darhaqiqat bugungi kunda jamiyatimizda ayollarimizning mavqeyi baland. Qaysi sohada bo'lsin ular taraqqiyot rivojiga o'z hissalarini qo'shib bormoqdalar. Ayniqsa farzand tarbiyasida ularning o'rnini beqiyosdir. Binobarin onalar mexri va e'tibori bilan voyaga yetgan inson elu-yurtga foydasi tegadigan, bag'rikeng va ma'naviyati yuksak shaxs bo'lib kamol topadi buning zaminida Yurt, Vatan, Jamiyatimiz rivoji kafolatlanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev "Hotin -qizlarning mexnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish" Uz/news/president xotin-qizlarning.
2. Islom.uz(rasmiy)(@islomuz) .
3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar..
4. O'zbekiston yangiliklari Review.uz saytida reviesh.